



O'ZBEKISTON XUSUSIY TELEKANALLARIDA TOK-SHOU JANRINING BADIY-DRAMATURGIK XUSUSIYATLARI VA REJISSYORLIK KONSEPSIYALARI

Aziza Ahmadova

jurnalist.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi nodavlat telekanallarda yaratilayotgan tok-shoular janrining shakllanishi, ularning badiiy-dramaturgik qurilishi hamda rejissyorlik yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tomoshabin ehtiyoji, milliy mentalitet va zamonaviy media bozori talablariga mos ravishda shakllanayotgan tok-shoularning o'ziga xos konsepsiyalari ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tok-shou, telejanr, rejissyorlik, telekommunikatsiya, xususiy telekanal, format, auditoriya.

Televideniya tok-shoular alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, dolzarb mavzularni yorituvchi yoki ko'ngilochar tushdagi tok-shoular tomoshabin e'tiborini tezda o'ziga jalb qiladi. Axborot texnologiyalari va internet jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda televideniya bo'lgan talab avvalgidek yuqori emas. Shu sababli bugungi kunda telekanallar auditoriyani o'ziga tortish va ularni saqlab qolish maqsadida turli yo'nalishdagi tok-shoularni efir setkalariga joylashtirmoqda.

Tok-shoular mazmuni va formati jihatidan xilma-xildir: ayrim telekanallar ijtimoiy-siyosiy mavzularni muhokama qiluvchi tok-shoularni taqdim etsa, boshqalari esa ko'ngilochar ruhdagi dasturlar orqali teletomoshabinlarga ijobiy kayfiyat ulashadi. Umuman olganda, tok-shoular kutilmagan vaziyatlar, turli qarashlar to'qnashuvi va insonlarning muammolarga munosabatini yoritadi. Eng muhimi, bu janrdagi dasturlar auditoriya bilan bevosita muloqotga kirishib, tomoshabin ishtirokini ta'minlaydi

So'nggi yillarda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari tizimida xususiy telekanallar sonining ortishi natijasida mediabozorning raqobat muhiti kuchaydi. Bu holat yangi janrlar, xususan, tok-shou janrining faol rivojlanishiga sabab bo'ldi. Tok-shou bugungi kunda nafaqat axborot, balki ijtimoiy, ma'naviy va madaniy muammolarni muhokama etish maydoniga aylangan. Shu bois, ushbu janrni o'rganish, ayniqsa, uning badiiy-dramaturgik va rejissyorlik xususiyatlarini tahlil etish dolzarb masalalardan biridir.

Tok-shou - bu muayyan mavzu doirasida olib boriladigan, yetakchi va ishtirokchilar o'rtasidagi muloqotga asoslangan teleko'rsatuv janridir. U suhbat, munozara, improvizatsiya, sahnalashtirish va tahlil elementlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda dastlabki tok-shou unsurlari 2000-yillarda davlat telekanallarida paydo bo'lgan bo'lsa, 2010-yillardan boshlab xususiy telekanallar ushbu formatni

ommashtira boshladi. Bugungi kunda “Zo‘r TV”, “Sevimli TV”, “Milliy TV”, “MY5”, “Renessans TV”, “Xalqaro Press klub” kabi telekanallar tok-shoularni ishlab chiqmoqda.

Bugungi kunda o‘zbek olimlari telekanallarda namoyish etilayotgan tok-shou janrini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning badiiy-dramaturgik xususiyatlari va rejissyorlik yechimlarini o‘rganish borasida faol tadqiqotlar olib bormoqdalar. Jumladan, A. Karimov, N. Qosimova, P. Allaberganova, Yu. Artikova, Yu. Zohidova, F. Mo‘minov kabi tadqiqotchilar bu yo‘nalishda o‘z ilmiy izlanishlari bilan ajralib turishadi.

Tok-shouning dramaturgiyasi an‘anaviy teatr yoki kinodramaturgiyadan farqli ravishda real vaqt rejimidagi muloqot va improvizatsiyaga asoslanadi. Shu bilan birga, har bir tok-shouda quyidagi asosiy dramaturgik bosqichlar mavjud:



Badiiy jihatdan kuchli tok-shoularda sahna dizayni, musiqa, tahrir, kadr o‘tishlari, fonografik effektlar kabi elementlar muvozanatli qo‘llaniladi.

O‘zbekiston televideniyesida tok-shou janri so‘nggi yillarda eng ommabop va auditoriya e‘tiborini jalb etuvchi ko‘rsatuv turlaridan biriga aylandi. Xususan, xususiy telekanallar paydo bo‘lgach, ularning har biri tomoshabinni jalb etish maqsadida o‘ziga xos uslubdagi tok-shoularni ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda rejissyorlik yechimi, boshlovchi mahorati hamda badiiy-dramaturgik yondashuv asosiy rol o‘ynaydi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, tok-shoularni uchburchak shaklidagi dramaturgik model orqali tasvirlash mumkin. Ushbu modelda uchburchak cho‘qqisida har doim etakchi — ya‘ni boshlovchi turadi. U dastur markazida bo‘lib, muloqotlar oqimini boshqaradi, ishtirokchilar o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi va muhokamani kerakli yo‘nalishda olib boradi. Agar boshlovchi o‘z rolini to‘liq bajarmasa, tok-shou uyg‘unlikni yo‘qotib, oddiy mehmonlar yig‘ilishiga aylanib qoladi.

Tok-shou janrining badiiy-dramaturgik mohiyati konflikt, dramatizm va muloqot dinamikasiga asoslanadi. Mavzu jiddiy bo‘lsa, ishtirokchilar o‘rtasida ziddiyatlar, hissiy chiqishlar va ba‘zan janjallar paydo bo‘lishi tabiiy hol. Shunday vaziyatlarda



boshlovchi muloqotni boshqarib, tartibni saqlaydi, rejissyor esa studiyada umumiy muhitni nazorat ostida ushlab turadi. Ayrim hollarda esa parda ortida xavfsizlik xodimlari navbatchilik qiladi, bu esa telejarayonning tabiiyligini va xavfsizligini ta'minlaydi.

Tok-shouning rejissyorlik konsepsiyasi dastur dramaturgiyasini aniq rejalashtirish, har bir ishtirokchining roli, sahna joylashuvi, kameraning harakat yo'nalishi, yorug'lik va musiqa orqali hissiy fonni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Rejissyor asosan muhokama ritmini belgilaydi va boshlovchi bilan birgalikda tomoshabin e'tiborini kerakli nuqtalarga yo'naltiradi.

1.	Dialogik konsepsiya	Bu yondashuvda asosiy urg'u ishtirokchilar o'rtasidagi jonli muloqotga qaratiladi. Dastur boshlovchisi faqat muhokamani boshqaruvchi sifatida emas, balki faol suhbatdosh, muloqotni yo'naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu konsepsiyada boshlovchi va mehmonlar o'rtasidagi tabiiy dialog, fikrlar almashinuvi va jonli bahs dastur dinamizmini ta'minlaydi. Masalan, "Sevimli" telekanalidagi "Yangi hayot", yoki "MY5" telekanalidagi "Gapring" tok-shoulari aynan dialogik yondashuv asosida qurilgan bo'lib, unda auditoriya o'zini suhbat jarayonining bevosita ishtirokchisi sifatida his qiladi. Mazkur yondashuvda rejissyor muhokama jarayonini dramatik sahnaga aylantirishga intiladi. Ishtirokchilarning hissiy reaksiyalari, pauzalar, ovoz tembri, yuz ifodasi va tana harakatlari orqali muhokama ta'sirchanligi kuchaytiriladi. Bu turdagi dasturlar, odatda, insoniy taqdir, oilaviy muammolar yoki ijtimoiy fojialar bilan bog'liq mavzularda ishlanadi. Rejissyorlik uslubi orqali tomoshabinning his-tuyg'usiga bevosita ta'sir etuvchi, kuchli emotsional muhit yaratiladi.
2.	Interaktiv konsepsiya	Zamonaviy tok-shoular uchun eng xarakterli xususiyatlardan biri tomoshabinlarning faol ishtirokini ta'minlashdir. Interaktiv konsepsiyada auditoriya SMS, ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlar yoki jonli efitra qo'ng'iroqlar orqali muhokama jarayoniga bevosita jalb etiladi. Bu yondashuv tomoshabin va studiya o'rtasidagi masofani qisqartirib, dasturga jonlilik, spontaniklik va dolzarblik beradi. Shuningdek, bu turdagi dasturlar jamoatchilik fikrining shakllanishiga ham xizmat qiladi.



3.	Vizuallashtirilgan konsepsiya	Tok-shoularda tasviriy vositalardan foydalanish rejissyorlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Vizuallashtirilgan konsepsiyada video lavhalar, sahna o'yinlari, infografika, arxiv materiallari, fotosuratlar yoki grafika elementlari orqali muhokama mazmuni boyitiladi. Bu esa nafaqat axborotni tushunarliroq shaklda yetkazishga, balki tomoshabin diqqatini saqlab turishga ham xizmat qiladi.
----	--------------------------------------	--

Tok-shou janri O'zbekiston xususiy televideniyesida demokratik fikr almashinuvi, erkin mulohaza va ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama etish maydoniga aylanib bormoqda. Uning badiiy-dramaturgik xususiyatlari rejissyorlik konsepsiyasiga bevosita bog'liq bo'lib, har bir loyiha auditoriya ruhiyatini hisobga olgan holda yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A. "Zamonaviy televideniye janrlari". – Toshkent: O'zDJTU nashriyoti, 2021.
2. Saidov R. "Telejurnalistika asoslari". – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
3. Jenkins H. *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide*. – New York University Press, 2006.
4. To'raeva N. "O'zbekiston telekanallarida zamonaviy ko'rsatuv formatlari". – "Media va madaniyat" jurnali, №3, 2022.
5. Qosimova N. "Tok-shou janrining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy roli". – "OAV va jamiyat" to'plami, 2023.
6. <https://kun.uz/news/2024/05/23/televideniya-ijtimoiy-siyosiy-tok-shoular-kopaydi-jarayon-qanday-ketyapti>